O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Qulupnayni sotish va uning sifatini nazorat qilish standarti

(FVV-35:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #AMHTPVM2G3 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25-fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FVV-35:2023 “Concerning the marketing and commercial quality control of strawberries” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #AMHTPVM2G3 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni osonlashtirishga, yuqori sifatli mahsulot yetishtirishni rag‘batlantirishga, rentabellikni oshirishga va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. BMT YIK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqlilik asosida ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida batafsil ma’lumot olish uchun quyidagi veb-saytimizga tashrif buyuring: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Qulupnay uchun amaldagi qayta ko‘rib chiqilgan standart 2021-yilda Ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan (shuningdek, COVID-19 davridagi maxsus protseduralarga muvofiq "sukut saqlash tartibi" orqali tasdiqlangan) ECE/CTCS/WP.7/2021/17 hujjatiga asoslangan.

STANDARTLAR INSTITUTI #AMHTPVM2G3 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

QULUPNAYNI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ, КАСАЮЩИЙСЯ МАРКЕТИНГА И КОММЕРЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА КЛУБНИКИ

STANDARD CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF STRAWBERRIES

Amalga kiritish sanasi 25.03.2026

1 Mahsulotni aniqlash

Ushbu standart qoidalari Fragaria L. turidan olingan, iste’molchilarga yangiligida yetkazib beriladigan botanik turlari (navlari) qulupnaylarga tatbiq etiladi; sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan qulupnay bundan mustasno.

II Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi qulupnayni tayyorlash va qadoqlashdan so‘ng uning sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Biroq, u eksportga jo‘natilgandan/yuklab jo‘natilgandan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagilar kuzatilishi mumkin:

• yangilik va taranglikning biroz yo‘qolishi;

• “Ekstra" sinfdan tashqari toifalarga kiritilgan mahsulotlar uchun ularning rivojlanishi va buzilish tendensiyasi sababli holatining biroz yomonlashuvi.

Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni ko‘rgazmaga qo‘yishi, sotish uchun taklif etishi yoki ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan boshqa usulda yetkazib berishi yoxud sotishi mumkin emas. Mulkdor/sotuvchi bunday muvofiqlikka rioya etilishi uchun javobgardir.

A. Minimal talablar

Barcha sinflardagi qulupnay, har bir sinf uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chekinishlarni hisobga olgan holda, quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak:

• butun va shikastlanmagan;

• sifatli; chirigan yoki buzilgan, iste’molga yaroqsiz mahsulotlar qabul qilinmaydi;

• toza; amalda ko‘zga ko‘rinadigan begona moddalardan holi;

• tashqi ko‘rinishidan yangi, ammo yuvilmagan;

• amalda zararkunanda hasharotlardan holi;

• zararkunanda hasharotlar tomonidan yetkazilgan shikastlar deyarli yo‘q;

• Kosa bargchalari bilan birga (o‘rmon qulupnaylaridan tashqari); kosa bargchalari va poyasi (agar mavjud bo‘lsa) yangi (so‘lmagan) bo‘lishi kerak;

• me’yoridan ortiq tashqi namlikdan xoli;

• hech qanday begona hid va/yoki ta’mdan holi.

Qulupnayning yetilish darajasi va holati quyidagilarga imkon berishi kerak:

• tashish va yuklash-tushirish ishlariga bardoshli bo‘lishi kerak;

STANDARTLAR INSTITUTI #AMHTPVM2G3 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• belgilangan joyga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Yetilganlik talablari

Qulupnaylar yetarlicha darajada rivojlangan bo‘lishi va qoniqarli darajada pishgan va/yoki yetilgan bo‘lishi kerak.

C. Tasniflash

Qulupnay uchta mahsulot naviga bo‘linadi, ular quyidagicha aniqlanadi:

(i) “Ekstra" sinf

Bu sinfdagi qulupnay eng sifatli bo‘lishi kerak. U o‘zining naviga xos belgilarga ega bo‘lishi kerak.

U quyidagicha bo‘lishi kerak:

• naviga xos belgilarni inobatga olgan holda, yorqin tashqi ko‘rinishga ega bo‘lishi;

• tuproq qoldiqlaridan xoli bo‘lishi kerak.

U nuqsonlarga ega bo‘lmasligi kerak, juda kichik yuza nuqsonlari bundan mustasno, agar ular qadoqdagi mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va mahsulot ko‘rinishiga ta’sir qilmasa.

ii) I sinf

Bu sinfdagi qulupnay yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. U o‘zining sinfiga xos belgilarga ega bo‘lishi kerak.

Biroq, qadoqlashda mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va mahsulot ko‘rinishiga ta’sir qilmaydigan quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shaklning kichik nuqsoni;

• meva yuzasining o‘ndan bir qismidan oshmaydigan kichik oq dog‘ning mavjudligi;

• bosilganda yengil yuzaki iz.

Ular amalda tuproq qoldilaridan deyarli xoli bo‘lishi kerak.

iii) II sinf

Bu sinfga yuqori sinflarga kiritib bo‘lmaydigan, lekin yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga javob beradigan qulupnay kiradi.

Biroq, qulupnay o‘ziga xos sifat belgilarini, saqlanuvchanligini va mahsulot ko‘rinishini saqlab qolgan taqdirda quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shakl nuqsonlari;

• mevaning umumiy yuzasining beshdan bir qismidan katta bo‘lmagan kichik oq dog‘ning mavjudligi;

• keyinchalik kattalashmaydigan yengil quruq ezilish;

• tuproq mavjudligining ahamiyatsiz izlari.

III O‘lchamga oid qoidalar

Mevaning o‘lchami ko‘ndalang kesimini eng katta diametriga qarab aniqlanadi.

Eng kichik kalibr quyidagicha bo‘lishi lozim:

• "Ekstra" sinf[1] uchun 25 mm;

[1] Amerika Qo‘shma Shtatlarining izohi.

STANDARTLAR INSTITUTI #AMHTPVM2G3 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• Birinchi va ikkinchi sinflar uchun 18 mm.

O‘rmon qulupnayisi uchun minimal o‘lcham belgilanmagan.

IV Ruxsat etilgan og‘ishlarga oid qoidalar

Sotishning barcha bosqichlarida har bir turkumda sifati va o‘lchamlari bo‘yicha ko‘rsatilgan[2] mahsulot navi uchun belgilangan talablarga javob bermaydigan mahsulot mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chekinishlar

i) "Ekstra" sinf

Umuman olganda, ushbu nav talablariga mos kelmaydigan, ammo birinchi nav talablariga javob beradigan qulupnay mevalarining miqdori yoki vazni bo‘yicha 5% bo‘lishiga ruxsat etiladi. Ushbu ruhsat etilgan chegara doirasida umumiy miqdor/og‘irlikning 0,5% dan ko‘pi emas ikkinchi nav sifat talablariga javob beradigan mahsulotni tashkil etishi mumkin.

ii) I sinf

Umuman olganda, ushbu nav talablariga javob bermaydigan, ammo ikkinchi nav talablariga javob beradigan qulupnay mevalarining miqdori yoki vazni bo‘yicha 10% gacha ruxsat beriladi. Ushbu ruxsat etilgan chegara doirasida umumiy miqdorning/og‘irlikning 2% dan ko‘p bo‘lmagan qismini ikkinchi nav sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki degradatsiyaga uchragan mahsulotlar tashkil etishi mumkin.

iii) II sinf

Umumiy hisobda qulupnay mevalarining soni yoki og‘irligi bo‘yicha ushbu nav talablariga ham, minimal talablarga ham mos kelmaydigan 10% gacha ruxsat beriladi. Ushbu ruxsat etilgan chegarada doirasida umumiy miqdor/og‘irlikning 2% dan ko‘pi emas degradatsiyaga (sifat buzilishiga) uchragan mahsulotni tashkil etishi mumkin.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chekinishlar

Barcha mahsulot navlari uchun: kalibrlashning minimal talablariga javob bermaydigan qulupnay mevalarining soni yoki og‘irligi bo‘yicha jami 10% bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

V Mahsulot ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat kelib chiqishi, botanik navi hamda sifati bir xil bo‘lgan qulupnay mevalaridan iborat bo‘lishi lozim.

"Ekstra" sinfli qulupnay, o‘rmon qulupnayidan tashqari, pishganligi, rangi va mevalari o‘lchami jihatidan alohida bir xil bo‘lishi kerak. Birinchi navli qulupnayning mevalari o‘lchamiga ko‘ra biroz farq qilishi mumkin.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun qadoq tarkibiga mos kelishi kerak.

---

[2] Muvofiqlikni tekshirish dastlabki yoki aralash namunalarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. U tasodifiy tanlash usuli bilan olingan namunalar sifati butun partiya sifatini aks ettiradi, degan taxminga asoslanadi. IQTHT muvofiqlik tekshiruvlarini o‘tkazish bo‘yicha Amaliy qoidalarni qo‘llash tavsiya etiladi. Bu qoidalar yuklab jo‘natish bosqichlarida, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi ulgurji va chakana savdo markazlarida hamda ularning omborxonalarida ham operatorlar tomonidan qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

STANDARTLAR INSTITUTI #AMHTPVM2G3 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B. Qadoqlash

Qulupnay mahsulotning tegishli darajada saqlanishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza va sifatli bo‘lib, mahsulotga tashqi yoki ichki zarar yetkazmasligi kerak. Savdo ma’lumotlari ko‘rsatilgan qog‘oz yoki yorliqlardan foydalanishga ruxsat beriladi, bunda matn yozish yoki yorliqlarni yopishtirish uchun faqat zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim ishlatilishi kerak..

Qadoqlarda hech qanday begona moddalar bo‘lmasligi kerak.

VI Tamg‘alashga oid qoidalari

Har bir o‘ramning[3] bir tomoniga aniq va o‘chmaydigan shrift bilan quyidagi ma’lumotlar guruhlangan holda yozilishi va tashqaridan ko‘rinib turishi kerak:

A. Identifikatsiya belgilari

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi.

Nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/tuman/pochta indeksi va mamlakat, agar u kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa) yoki vakolatli milliy organ[4] tomonidan rasman tan olingan kod belgisi, agar bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat BMT[5] YEIKning Kod belgilari ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa.

Aniq pochta manzili mavjud bo‘lmagan hollarda, jismoniy manzil sifatida xo‘jalik yoki obyektning, eng yaqin aholi punkti, shahar, viloyatning nomi va pochta indeksi ko‘rsatilishi mumkin;

B. Mahsulot tavsifi

• Agar qadoq ichidagi mahsulotlar tashqaridan ko‘rinmasa, "Qulupnay" deb yozilishi kerak.
• Botanik navning nomlanishi (ixtiyoriy).

---

[3] Tamg‘alash to‘g‘risidagi ushbu qoidalar ushbu ma’lumotlar ko‘rsatilgan o‘ramlardagi iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida sotiladigan sotish uchun qadoqlar (iste’mol qadoqlari)ga taalluqlidir.

[4] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligida nom va manzilni aniq ko‘rsatish talab etiladi.

Biroq, kod belgisi qo‘llanilganda, uning bevosita yaqinida "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi" yozuvi (yoki tegishli qisqartmalar) qo‘yilishi lozim. Bundan tashqari, agar sertifikatlashtiruvchi mamlakat kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, kod belgisidan oldin sertifikatlashtiruvchi mamlakatga tegishli bo‘lgan (ikki harfli) mamlakat/hudud kodi (ISO 3166) joy-lashtirilishi kerak.

[5] Quyidagi manzilga qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html.

[6] Amerika Qo‘shma Shtatlarining abonent qutisi manzilidan foydalanish bo‘yicha eslatmasi, chunki bu manzil korxonani tekshirishga yoki mahsulot chaqirib olingan taqdirda tezkor aralashuvga imkon bermaydi, shuningdek qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi bilan bog‘liq milliy markirovka talablarining bir qismi hisoblanmaydi.

[7.] To‘liq yoki odatda qo‘llaniladigan nom ko‘rsatilishik kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #AMHTPVM2G3 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

C. Mahsulotning kelib chiqishi

• Yetishtirish[7] mamlakati va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirish hududi yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy nomi.

D. Mahsulot xususiyatlari

• Mahsulot navlari.

E. Nazorat to‘g‘risidagi rasmiy belgi (ixtiyoriy)

Qabul qilingan: 1962-yil
Oxirgi marta qayta ko‘rib chiqilgan: 2021-yil
Yagona standart tuzilmasiga moslashtirilgan: 2023-yil

STANDARTLAR INSTITUTI #AMHTPVM2G3 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI